

KENESBOY KARIMOV ASARLARIDA QO‘LLANILISH DOIRASI CHEKLANGAN SO‘ZLARNING POETIK XIZMATI

Ayapova Hurliman Bazarbay qizi,

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti

G-mail: hurlimanayapova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada yozuvchi Kenesboy Karimov asarlari tilida qo‘llanish doirasi cheklangan so‘zlarning poetik xizmati tahlil qilinadi. Xususan, vulgarizmlarning badiiy matndagi semantik, stilistik va emotsional-ekspressiv vazifalari misollar asosida yoritiladi. Tadqiqot davomida vulgarizmlar personaj xarakterini ochish, ularning psixologik holatini tasvirlash, konfliktni kuchaytirish hamda asarning milliy va ijtimoiy koloritini yaratishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilishi aniqlangan. Shuningdek, yozuvchi tomonidan vulgarizmlarning qo‘llanishidagi individual uslubiy xususiyatlar ham tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Kenesboy Karimov, qo‘llanish doirasi cheklangan so‘zlar, vulgarizm, poetik funksiya, badiiy matn, emotsional-ekspressivlik, personaj nutqi, stilistik vosita, salbiy baholash, konflikt.

Аннотация. В данной статье анализируется поэтическая функция лексики с ограниченной сферой употребления, использованной в языке произведений писателя Кенесбая Каримова. В частности, на примерах рассматриваются семантические, стилистические и эмоционально-экспрессивные функции вульгаризмов в художественном тексте. В ходе исследования было установлено, что вульгаризмы служат важным средством для раскрытия характера персонажа, описания его психологического состояния, усиления конфликта, а также для создания национального и социального колорита произведения. Также анализируются индивидуально-авторские стилистические особенности использования вульгаризмов.

Ключевые слова: Кенесбай Каримов, лексика с ограниченной сферой употребления, вульгаризм, поэтическая функция, художественный текст, эмоциональная экспрессивность, речь персонажа, стилистическое средство, отрицательная оценка, конфликт.

Abstract. This article analyzes the poetic function of words with a limited scope of use in the language of writer Kenesboy Karimov's works. In particular, it examines the semantic, stylistic, and emotional-expressive functions of vulgarisms in a literary text, supported by examples. The research reveals that vulgarisms serve as an important tool for revealing a character's personality, depicting their psychological state, intensifying conflict, and creating the work's national and social color. Additionally, the author's individual stylistic features in the use of vulgarisms are also analyzed.

Keywords: Kenesboy Karimov, words with a limited scope of use, vulgarism, poetic function, literary text, emotional expressiveness, character speech, stylistic device, negative evaluation, conflict.

Kirish. Qoraqalpoq og‘zaki so‘zlashuv tili juda boy bo‘lib, ushbu jonli so‘zlashuv vaqtida tilning barcha elementlari aniq ko‘rinib turadi. Og‘zaki so‘zlashuv orqali insonning ichki his-tuyg‘ulari, psixologik holatlari aniqlanadi. Qoraqalpoq tilshunosligida og‘zaki so‘zlashuvga xos, lekin adabiy til me‘yorlariga zid keladigan so‘zlar uchraydi. Bunday so‘zlar guruhini qo‘llanilish doirasi cheklangan so‘zlar tashkil etadi. Qo‘llanish doirasi cheklangan so‘zlar barcha odamlarning kundalik so‘zlashuv tilida qo‘llanilmaydi, aksincha, ma‘lum bir guruh vakillari orasida qo‘llaniladi. Bu guruhga dialektizmlar, arxaizmlar, tarixiy so‘zlar, jargon so‘zlar, vulgarizm va varvarizm kabi bir necha so‘zlar guruhi kiradi. Ular har doim ham erkin qo‘llanilmaydi, faqat tor muhitda qo‘llaniladi.

Adabiyotlar tahlili. "Vulgarizm" so‘zining etimologiyasi lotin tilidan kelib chiqqan bo‘lib, vulgus, vulgaris va vulgaris kabi so‘zlarga borib taqaladi. Bu so‘zlar qo‘pol

so'kadigan holatda qo'llanilgan va ko'pincha salbiy ma'noda ishlatilgan .[2.336-339] M.Baxtinning fikricha: "So'kish, qarg'ish, malomat kabi qo'pol so'zlar – tilning norasmiy unsurlaridir. Ular so'zlashuv madaniyatidagi axloqiy qoidalarni qasddan buzish ko'rinishi sifatida qabul qilingan. Ular muloqot jarayonida qoliplardan, hurmat-izzatdan, nazokatdan, madaniyatdan, axloqdan, bo'ysunishdan va boshqalardan qasddan yuz o'girishni anglatadi[3].

B.O'rinboev vulgarizmlarni ma'no ottenkasi va qo'llanish doirasiga ko'ra 3 guruhga bo'ladi:

a) kishilarning xarakteri va mijozidagi ojizlikni ifodalovchi vulgarizmlar: ezma, juvonboz, xumpar, buzuq, mug'ombir, latta kabi;

b) kishining tashqi kamchiligini ko'rsatuvchi vulgarizmlar: mechkay, ko'ppak, maymoq, ilonbosh, simyog'och, qovoqbosh, ayronbosh, gumbaz, bordonday, qo'ng'iz, mo'ylov, kal, do'rdoq, qiyshiq ,qo'tirkabi;

v) so'kish, koyish ma'nosini ifodalovchi vulgarizmlar: bachchag'ar, yaramas, ablah, xumpar, nomard, badbaxt, nonko'r, gumroh, qistaloq, ahmoq, sintaloq, xotin-taloq, galvars, kasofat, nahs, ko'ppak, og'moq (telbalanmoq), og'zikatta (kibrhavola), nazariilmaydi (mensimaslik) kabilar".[5.48] Olim vulgarizmlarni badiiy matnda ma'no ottenkasi va qo'llanilishiga ko'ra uch turga ajratib tahlil qilgan.

D. To'rayevaning fikriga ko'ra, "Vulgarizmlarni ma'no jihatidan ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. So'kinch so'zlari.

2. Qarg'ishlar.

So'kinch so'zlarning qo'llanish darajasiga ko'ra 3 guruhga bo'lish mumkin:

1) haqorat so'kinch so'zlar;

2) qo'pol so'kinch so'zlar;

3) o'ta qo'pol so'kinch so'zlar".[4.213]

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tavsifiy va tahliliy metodlar asosiy yondashuv sifatida qo'llanildi. Kenesboy Karimov asarlari matni material sifatida tanlanib, unda qo'llangan qo'llanish doirasi cheklangan so'zlar, xususan vulgarizmlar kontekstual tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida lingvistik kuzatish usuli orqali badiiy matndan misollar tanlab olindi va ularning semantik hamda stilistik funksiyalari aniqlandi. Shuningdek, komponent tahlil metodi yordamida vulgarizmlarning ma'no qatlamlari va emotsional-ekspressiv xususiyatlari o'rganildi.

Qiyosiy metod asosida esa vulgarizmlarning nutqdagi vazifasi, ularning personaj xarakterini ochishdagi o'rni va badiiy matndagi funksional yuklamasi tahlil qilindi. Olingan natijalar umumlashtirilib, yozuvchining individual uslubiy xususiyatlarini aniqlashga xizmat qildi.

Tahlillar va natijalar. Yuqorida berilgan guruhlariga ayrim vulgarizmlarni yozuvchi K.Karimov asarlari tilida uchratamiz. Bu soʻzlarni yozuvchi asarlari tilida qahramonning ichki holatini, psixologiyasini, feʼl-atvorini, tabiatini ochib berish, asardagi voqeaga oʻtkirlik maʼno berish uchun mahorat bilan foydalanadi. Bunday soʻzlarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: *Masalan, - Mina **haramzada**, - dep gʻap basladi birinshi bolip oʻzine kelgen baqqal meniń dúnya-malimdı jur tqa tegin úlestirip atırǵanda qolınan usladım* (K.Karimov, “Agʻabiy” III kitap). Yozuvchining bu asarida “*haramzada*” soʻzi oʻzining toʻgʻri maʼnosida emas, koʻchma maʼnoda kelib chiqqan asardagi qahramonning ikkinchi bir odamga qattiq gʻazablanganligini, nafrat tuygʻusini va gʻazabini bildirish uchun ishlatilgan. Odamning odob-axloqini pasaytirish, uni kamsitish uchun aytilgan. Bu soʻz poetik jihatdan asar qahramonining gʻazabi chegarasidan oshganligini koʻrsatadi, asarga emotsional-ekspressiv boʻyoq beradi, asar qahramonining psixologik holatini aniqlashtirib, oʻquvchida salbiy qahramonga nisbatan nafrat tuygʻusini uygʻotadi. – *Jogʻal, kózime kórinbe! -Jogʻalasań ba, ya ózim!...Atańnuń...* (K.Karimov, “Agʻabiy” III kitap) Bu misoldagi “*jogʻal*”, “*atańnuń*” soʻzlari vulgarizmlar boʻlib, bunda yoʻqol soʻzi buyruq shaklida kelib, personajni mensimaslik, uni quvib solish maʼnosida qoʻllanilgan. Asarda bu soʻz kuchli emotsional-ekspressiv maʼno anglatib kelgan. Dialogda konflikt boshlanishini bildirib turibdi, “*atańnuń*” soʻzi toʻliq aytilmay, qisqartirib qoʻllanilgan soʻkish konstruksiyasi boʻlib, muallif etiketlik normani buzmaslik uchun ellipsis qoʻllagan, muallif ellipsis qoʻllasa ham oʻquvchi u aytilmay qolgan boʻlakning soʻkish soʻz ekanini sezib turadi. Yozuvchi bu vulgarizmlarni asarda personaj tilida qoʻllash orqali personajning boʻyidagi salbiy xulq-atvorni oʻquvchiga taʼsirliroq qilib yetkazib berishni maqsad qilganini koʻrishimiz mumkin. Bundan tashqari asar tilida salbiy baholovchi soʻzlar ham uchraydi. Bunday soʻzlar asarda personajning tashqi koʻrinishini taʼriflash uchun qoʻllanilgan. Masalan, Orta boylı, basına alatpa bóz taqıya, ústine boyalǵan bóz kóylek kiyip, belin buwǵan, murtı táp berip kiyatırǵan jigittiń tamırındaǵı qızıw qanı qaynap, “lap” etip basına tepti, ele dúkart tiymegen túkleri tebendey shansıldı, baqqalǵa uqsap onıń da kózlerinen gázepli ushqınlar shashıradı, ol ushqınlar jalınǵa aylanǵan edi, aldında turǵan **bádbásher** baqqaldı onıń janınday kórgen dúkanı menen birge kúydirip kúlge aylandırǵan bolar edi (K.Karimov, “Agʻabiy” III kitap). Bu misoldagi “*bádbásher*” vulgarizmi xunuk, yoqimsiz degan maʼnoni bildiradigan, salbiy baho beruvchi soʻz boʻlib, asar qahramonining tilidan ikkinchi bir odamning tashqi koʻrinishiga salbiy baho berish orqali ikkinchi odamga nisbatan nafrat tuygʻusini ifodalash uchun qoʻllanilgan. Masalan, Baqqaldan keyis esitip turǵan jigit artıqmash kúsh iyesi bolmasa da qarataldıń shıbıǵınday iyilgish hám ábjil edi...Arada kútilmegen waqıya bolmaǵanda kim bilsin **ashkóz** baqqal duwat shapanın óziniń qara qanına boyap jerde jatqan bolar ma edi? (K.Karimov, “Agʻabiy” III kitap) Bu misolda “*ashkóz*” soʻzi asarda baqqol obrazining asosiy feʼlini, uning vujudidagi salbiy illatlarni aniq koʻrsatib berish uchun qoʻllanilgan.

Xulosa. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Kenesboy Karimov asarlarida qo'llangan vulgarizmlar badiiy matnning emotsional-ekspressiv ta'sirchanligini oshirishda muhim poetik vosita vazifasini bajaradi. Yozuvchi ushbu birliklardan personajlarning ichki kechinmalari, ruhiy holati, xarakter xususiyatlari hamda ular o'rtasidagi ijtimoiy va psixologik ziddiyatlarni ochib berishda mahorat bilan foydalangan. Vulgarizmlar asarda nafaqat salbiy munosabat yoki haqorat ma'nosini ifodalash, balki milliy kolorit yaratish, obraz nutqini individuallashtirish va voqealar drammatizmini kuchaytirish kabi badiiy-estetik funksiyalarni ham bajaradi. Shu jihatdan, qo'llanish doirasi cheklangan so'zlar yozuvchi individual uslubining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. –Тошкент, Фан. 1983. – Б.36
2. Abdurayimova D.S. Lingvistik ekspertizada shaxsiy yozishmalarning o'rganilishi va uning ahamiyati// O'zbek milliy va ta'limiy korpuslarini yaratishning nazariy hamda amaliy masalalari" Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya . Vol. 1 №. 01. 2021. –B. 336-339]
3. Бахтин М.М. Творчество Франсуа Рабле и народная культура средневековья и Ренессанса. – Москва. Художественная литература, 1990. –С.206]
4. То'rayeva D.A. Shaxsiy yozishmalarda vulgar so'zlar va lingvistik ekspertiza // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar. Respublika I ilmiytexnikaviy konferensiya. Vol. 1 №. 01. 2021. –B. 213.
5. Уринбоев Б. Ҳозирги ўзбек тилида вокатив гап категорияси. – Тошкент, 1972. – Б.48

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934